





**NAVOIY VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024- YIL YANVAR-SENTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2 810 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 637 tasi (mavjud korxonalar umumiyligining 22,7 % ni) Navoiy shahriga, 453 tasi (16,1 %) Karmana tumaniga, 291 tasi (10,4 %) Qiziltepa tumaniga, 286 tasi (10,2 %) Xatirchi tumaniga va 232 tasi (8,3 %) G'ozg'on shahriga to'g'ri kelmoqda.




Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 102 069,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,8 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



*2024- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (523 766,7 ming so‘m), Karmana tumani (62 960,7 ming so‘m), Konimex tumani (16 837,1 ming so‘m), G‘ozg‘on shahrida (13 684,6 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.



*2024- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 83 581,8 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,9 % ni tashkil etdi.



- Tog'kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash
- Ishlab chiqarish
sanoati
- Elektr, gaz bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Navoiy shahri (83,8 %), Karmana tumani (8,6 %), Xatirchi tumani (1,5 %), Qiziltepa tumani (1,1 %) hamda Navbahor (0,9 %) tumani hissasiga tog'ri keldi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, G'ozg'on shahrida (109,8 %), Uchquduq tumanida (109,2 %), Zarafshon shahrida (109,2 %) hamda Qiziltepa (109,1 %) tumanlarida kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 429,3 mlrd so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,2 % ga to‘g‘ri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan – bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoiy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 83 581,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,9 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,5 % (9,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 82,7 % (81,6 %) va quiyi texnologiyalisi – 8,5 % (8,4 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2024- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda

124,6 ming m³ Azot (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 158,4 % ga o'sgan), 553,2 ming tonna Suvsiz ammiak (109,5 %), 2 203,8 ming dona mashinada yoki qo'lida to'qilgan trikotaj futboldiklar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar (127,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	65,1	67,3	2,2
Argon, ming m ³ .	156,3	995,5	839,2
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar, ming tonna.	357,9	432,1	74,2
Azot ,ming m ³ .	78,7	124,6	45,9
Kislород , ming m ³ .	97,0	480,8	383,8
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	5 776,5	8 570,7	2 794,2
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming tonna.	36,9	39,0	2,1
Suvsiz ammiak, ming tonna.	505,0	553,2	48,2
Uglerod dioksidi, tonna.	6 957,0	7 918,9	961,9
Metanal (formaldegid), tonna.	1 341,0	1 643,3	302,3
Superfosfatlar, ming tonna P2O5.	1,4	1,2	0,2

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Argon ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Argon – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlataladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.

Viloyatimizda 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 995,5 ming m³ argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4m. ga ko'paydi.



o'sish sur'ati, % da*




Uglerod dioksidi ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Uglerod dioksidi – gazsimon uglerod dioksid suyuqligidan tashkil topgan (karbonat angidrid, karbon dioksid) bo'lib, ammiak chiqindi gazlar, shuningdek, boshqa yonishmahsulotlar (past harorat suyuqlik, yuqori bosim suyuqlik va gaz) asosida olinadi.

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 7,9 ming tonna uglerod dioksidi ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ni tashkil etgan.



o'sish sur'ati, % da*




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kislород ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Kislород – rangsiz, hidsiz va ta’msiz gaz. Kislород eng faol (ftordan keyin) metallmas element, yengil inert gazlardan boshqa hamma elementlar bilan kimyoviy birikmalar hosil qiladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 480,8 ming m³ kislород ishlab chiqarildi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 m ga ko’paydi.



Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta’minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo’llanadi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 8 570,7 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 75,4 % ni tashkil etdi.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko’ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 78,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 65 875,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 95,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 455,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 12,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 3 501,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,6 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 105,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5 549,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 28,0 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 841,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qligan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 23,3 % ga ko'payib va ishlab chiqarish hajmi 1 407,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 964,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasini ishlab chiqarish 104,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 100,3 % ni hamda elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 97,1 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	7 729,0	8 065,0	336,0
Issiqlik energiyasi, ming. gkal	3 343,1	3 354,4	11,3
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	1 628,5	1 580,9	-47,6

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 93,4 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 186,0 % ni hamda oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 81,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	39 577,0	32 250,7	-7 326,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	110 634,9	98 255,6	-12 379,3
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	39 083,9	72 699,1	33 615,2

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING AMALGA OSHIRILISHI (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 376 ta loyiha bo'yicha 4 975,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 50,3 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 1 928 ta yangi ish o'rnlari yaratildi.

